



**PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMI SHAXS
BARKAMOLLIGINI TA'MINLASHNING
MUHIM OMILI SIFATIDA**

Azim Jabborov

*Xalqaro innovatsion universiteti psixologiya fanlari
doktori, professor*



**THE MECHANISM OF PSYCHOLOGICAL
PROTECTION AS AN IMPORTANT FACTOR IN
ENSURING PERSONAL DEVELOPMENT**

Azim Jabbarov

*Doctor of Psychological Sciences, Professor of the
International Innovation University*

**МЕХАНИЗМ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЗАЩИТЫ
КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР ОБЕСПЕЧЕНИЯ
РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ**

Азим Жабборов

*Доктор психологических наук, профессор
Международного инновационного университета*



E-mail: azimjabborov@gmail.com

Orcid: 0009-0001-4856-9496

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17153824>

Annotatsiya: Mazkur maqolada psixologik himoya mexanizmi shaxs barkamolligini ta'minlashning muhim omili ekanligi, shaxsning rivojlanishi va amaliy faoliyatida o'zini-o'zi anglashi, shaxs shakllanishini ta'minlovchi ijtimoiy-psixologik va tarbiyaviy omillar ilmiy jihatdan izchil tahlil qilingan

Kalit so'zlar: shaxs, psixologik himoya mexanizm, o'zini-o'zi anglash, psixika, ijtimoiy-psixologik, tarbiyaviy omillar, intellektual.

Аннотация: В данной статье с научной точки зрения последовательно анализируется тот факт, что механизм психологической защиты является важным фактором обеспечения совершенства личности, социально-психологические и воспитательные факторы, обеспечивающие самосознание в развитии и практической деятельности личности, формирование личности.

Ключевые слова: личность, психологический защитный механизм, самосознание, психика, социально-психологические, воспитательные факторы, интеллектуальный.

Abstract: This article consistently analyzes from a scientific point of view that the mechanism of psychological defense is an important factor in ensuring the perfection of the individual, the socio-psychological and educational factors that ensure self-awareness in the development and practical activity of the individual, and the formation of the individual.

Key words: personality, psychological defense mechanism, self-awareness, psyche, socio-psychological, educational factors, intellectual.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Zamonaviy psixologiyada yagona psixologik himoya mexanizmi konsepsiyasini ishlab chiqish juda ham muhim. Z.Freyd birinchi bo'lib 1895 yilda o'z tadqiqotlarida insonga xos «himoya harakatlari» haqida yozgan edi. Asta-sekin bu harakatlar tizimi



«himoya mexanizmi» nomini olgan, keyinchalik «psixologik himoya mexanizmi» ko‘rinishida to‘la qonli mazmun-mohiyatga ega bo‘lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolani tahlil qilish jarayonida ilmiy bilishning obektivlik, tarixiylik va umumiylik usulidan foydalanildi. D. Bell, A.K.Bolotova, S.N. Yenikolopov, O.A. Konopkin, M.O. Mdivani Ye.T. Sokolova, A.Bandura va boshqa adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan mualliflarning nazariy-ilmiy qarashlari ilgari surilgan ilmiy maqolalar metodologik manba bo‘lib belgilandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Psixologiyada psixologik himoya mexanizmlarini o‘rganishda ko‘plab yondashuvlar mavjud. Masalan, A.B. Brushlinskiy «inson psixikasiga tarixiy yondashuv prinsipiga tayanib, aqliy faoliyat mexanizmlarining o‘ziga xos tuzilishi va funksiyalarini belgilash kerak» deya ta’kidlaydi. [3].

«Mexanizm» atamasi B.M. Teplov ilmiy asarlarida o‘zgacha talqin qilinadi. U psixik jarayonlarni ilmiy izohlash uchun aks ettirish jarayonining mexanizmlarini o‘rganish kerakligini aytadi.

L.I. Ansiferova psixologik mexanizmlarni o‘rganishni psixik hayot dinamikasini o‘rganish bilan bog‘laydi. Muallif ta’kidlashicha, «psixologik mexanizmlar shaxs shakllanishini ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik va tarbiyaviy omillar majmui ekanligini, chunki ular real yoki ruhiy o‘zgarishlarning mexanizmlari, shaxsning jamiyat bilan, umuman olam bilan aloqasini ta’minlaydi». L.I. Ansiferova psixologik mexanizmlar - bu «shaxsni psixologik tuzilishida mustahkamlanib qolgan, uni o‘zgartirishning funksional usullari sifatida namayon bo‘ladi, buning natijasida turli xil psixologik neoplazmalar paydo bo‘ladi, shaxsda shaxslilik tizimini tashkil etish darajasi oshadi yoki pasayadi va uning ishlash (funktional) tartibi o‘zgaradi», deb hisoblaydi [4].

Mexanizmlarni o‘rganish va tavsiflash, A.A.Bodalevning so‘zlariga ko‘ra, aslida psixika nimadan, qachon va qanday ketma-ketlikda paydo bo‘ladi degan savolga javob berishga imkon beradigan hodisalarni tasvirlashni anglatadi. Bunga muvofiq, o‘zini-o‘zi idora qilish jarayonining mohiyati boshqariladigan qiymatni belgilangan qiymat bilan taqqoslashdan iborat bo‘lib, nomuvofiqlik bo‘lsa, boshqaruv ob’ekti boshqariladigan qiymatni tiklaydigan effekt oladi [5].

Rus olimi V.G. Leontev psixologik mexanizmlar «bu bir yoki bir nechta motivlar bilan ifodalangan faoliyatni boshqa motivlar bilan ifoda etish talab qilinadigan faoliyatga aylantirish va shakllantirish uchun mo‘ljallangan psixik hodisalar tizimidir» deya ta’riflaydi. Bundan tashqari, olim umumlashtirilgan shaklda psixologik mexanizmni insonni muayyan xulq-atvori va faoliyatiga maqsadli va



murakkab turtki berishning psixofiziologik, psixik va ijtimoiy shartlari tizimi sifatida qaraydi [6].

Demak, psixologik mexanizmlarni inson faoliyatining turli shakllari va uning ruhiy holatlarini idora qilish, boshqarish vositasi deb hisoblash mumkin. Psixologik mexanizmga bo'lgan ilmiy qarashlarni xilma-xilligi va ko'pligiga qaramay, odatda fanning har qanday sohasida «mexanizm» hodisasining mohiyatini batafsil ochib berish sifatida tushuniladi. Biron bir narsaning mexanizmini ochib berish uning ichki tuzilishiga kirib borishni, yaxlit qismlarning yoki elementlarning o'zaro anglashni va shu orqali obekt (jarayon) mohiyatini, uning zaruriy davomiyligini va muayyan sharoitlardan muqarrar ravishda paydo bo'lishini anglash va tushuntirishni anglatadi. Demak, ilm-fanning barcha sohalarida mexanizm tushunchasi turli xil hodisalar mexanizmlarini tekshirishning ulkan nazariy va amaliy ahamiyatini ochib beradi. Psixologik mexanizmlarni o'rganayotganda, ular umumlashtirish va har xil konkretlash darajalari, o'zaro ta'sirning ichki va tashqi tomonlarini aks ettirishni, shuningdek, inson faoliyati va xulq-atvorini ta'minlaydigan psixologik tizimning ko'plab bo'g'inlarini o'zaro bog'liqligini aks ettirish bilan tavsiflanganligini ta'kidlash lozim. Ulardan ba'zilar ma'lum bir vaziyatda insonning faolligini ta'minlashga qodir, boshqalari ko'proq umumlashtirilgan, bu jarayonni turli sharoit va vaziyatlarda ta'minlashga qodir. Bunday mexanizmlar umumlashtirilgan deb nomlanadi. Shu bilan birga, V.G Leontevning so'zlariga ko'ra bu shaxsning kompensatsion imkoniyatlarini yaratadigan faoliyatni rivojlantirishga qodir bo'lgan bitta mexanizm emas, balki ijtimoiy-psixologik tizimdir.

Muallifning ta'kidlashicha, ijtimoiy-psixologik darajada irodaviy mexanizm asosiy mexanizm vazifasini bajaradi (psixik holatlarni idora qilish va o'zgartirishga qaratilgan harakatlarning qo'shimcha ma'nosini o'zgartirish va yaratish sifatida). Barcha hosilalar mexanizmlari bilan bog'liq bo'lgan asosiy refleksiv mexanizm, ya'ni jamiyatda shaxsning shaxslararo munosabatlarini muvofiqlashtirishda aqliy va axloqiy harakatlari va holatlari doirasida o'z-o'zini anglashi, ularni qayta ko'rib chiqish va idora qilishi, shuningdek, ushbu holatlarni o'zgartirishga qaratilgan qadriyatli-me'yoriy hodisalar majmui sifatida baholanadi.

Xususan, Ye.T.Sokolova psixologik himoya fenomeni haqida keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borgan. Uning ilmiy kuzatishlariga ko'ra insonga xos psixologik himoya mexanizmi ijtimoiy-madaniy muhit ta'sirida u joyda amaldagi ta'lim tizimi, jamiyatda qabul qilingan qonunlar va me'yorlarni o'zlashtirish hamda ularga amal qilish jarayonida davomli shakllanib boradi. Psixologik himoya mexanizmi insonning hayot davomida egallagan bilimi va tajribasiga bog'liq bo'lib, uning xarakter xislatlari, temperament tiplari, unda qaror topgan e'tiqod va dunyoqarashiga



qarab o'ziga xos bo'ladi va shaxs o'zining hayotiy pozitsiyasida undan foydalanib, unga amal qilib boradi [8].

Uning ta'kidlashicha, psixologik himoya mexanizmi ikki bosqichli ko'rinishda namoyon bo'ladi: 1-bosqich – tug'ma instinktiv mayllarga tayanadigan, 2-bosqich – intellektual va ongli imkoniyatlarga tayanadigan psixologik himoya mexanizmidan iborat bo'ladi, ularning uyg'un holda rivojlanishi va ijtimoiy-axloqiy, milliy-ma'naviy me'yorlarga mosligi shaxsdagi psixologik himoya mexanizmini kuchi va barqarorligini belgilaydi.

M.O.Mdivani, P.B.Kodesslar [7] shaxsning hayotiy strategiyasini tadqiq qilish metodikasini ilmiy muomalaga kiritganlar. Aslida, Rossiya psixologiya fanida juda ko'p tadqiq qilingan soha hayotiy strategiya muammosi hisoblanadi. Hayotiy strategiya sub'ektning taraqqiyoti va shaxs sifatida shakllanib voyaga yetishi bilan bog'liqligi inson hayotida muhim ahamiyat kasb etishi S.L.Rubinshteyn tadqiqotlarida ham yaqqol ko'rsatib o'tilgan. Unda shaxsning faolligi va ijodkorligi sub'ekt hayotining tashkilotchisi va bunyodkori sifatidagi eng muhim omillar ekanligi ilmiy asoslab berilgan.

K.A.Abulxanovanning fikricha hayotiy strategiyaning rivojlanishi va uni egallash insonning kamol topishida, o'z taqdirini va hayotini o'zi belgilashida eng muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Mualliflar psixologik ta'limotlarning tarixiy shakllangan asoslariga tayanib, hayotiy strategiya insonning hayotiy maqsadlari tizimi, bu tizim kundalik va kelajak hayot uchun psixologik yo'llanmani (hayotiy dasturni) tashkil etadi deb izohlaydilar. L.K.Bolotova [3] Shaxsda o'zini-o'zi anglashning rivojlanishi muammosini o'rganib, bu sohada - psixologiyaning umumnazariy va metodologik yo'nalishda L.I.Bojovich, B.G.Ananev, L.S.Vygotskiy, S.L.Rubinshteynlar keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borganliklarini e'tirof etadi.

O'zini-o'zi anglashning tuzilishi va uning muhim tarkibiy qismlari haqida O.N.Molchanova, V.S.Muxina, L.V.Borozdinalar (jumladan, o'ziga-o'zi baho berish, o'zini-o'zi nazorat qilish va boshq.); shaxsning rivojlanishi va amaliy faoliyatida o'zini-o'zi anglashini ijtimoiy psixologik va falsafiy muammo sifatida I.S.Kon, B.B.Stolin, A.G.Sperkin, I.I.Chesnokovalar o'rganganliklariga yuqori baho berilgan. Jumladan, L.S.Vygotskiy, S.L.Rubinshteynlar nuqtai nazaricha, ongning quyi chegarasi bo'lib, bolaning o'zini-o'zi anglay boshlashi bola ongning taraqqiyoti uchun muhim va dastlabki bosqich hisoblanadi, bu uning nutqi, ixtiyoriy harakatlari va mustaqilligi o'sishi uchun tayanch hisoblanadi. Agar uning ongi ob'ektiv olamni aks ettirsa, o'sha ob'ektiv olam shaxsning o'zini-o'zi anglashi orqali uning individualligiga (individual mazmuniga) aylanadi.



Psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinganda o‘zini-o‘zi anglash murakkab psixologik jarayon bo‘lib, uni tashkil etuvchilar shaxs tomonidan tashqi olamdagi ko‘plab obrazlarning idrok etilishi, xulq-atvor va faoliyatning turli vaziyatlarda turlicha shakllanib borishi va odamlar bilan turli shakllarda o‘zaro munosabatlarga kirishib borishi natijasida yuzaga kelgan tasavvur va tushunchalarning birikib bir butun – «Men» tushunchasini shakllanishidan iboratdir. Shaxsning o‘zini-o‘zi anglashi va psixik taraqqiyoti doimiy rivojlanib, murakkablashib, takomillashib boradigan yuksak aqliy jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lib, u doimo «Hozirgi (real) – Men», «kelajakdagi- Men» bilan belgilanadi.

Shaxsning psixologik funksional tuzilishini tashkil etuvchilar (uning qadriyatlari, maqsadi, ideali, dunyoqarashi, men obrazi, o‘zaro bog‘liqligi, o‘ziga baho berishi) uning xulq-atvori va faoliyatini mustaqil boshqaruvchi mezonlar hisoblanmasada, ular umumiy holatda o‘zini-o‘zi anglashning va shaxs rivojlanishining funksional tuzilishiga xos modelini tashkil etadi.

Shunday qilib, o‘zini-o‘zi anglashning rivojlanishi, o‘zini-o‘zi boshqarish va o‘zini-o‘zi takomillashtirish shaxsning o‘zini anglashi va hayot tarzining doimiy o‘zgarib borishi bilan uzviy bog‘liq holda o‘zgarib boradi.

O.A.Konopkin o‘zini-o‘zi ongli boshqarish sub’ektning eng muhim belgisi (kriteriysi) ekanligini ilmiy izlanishlarida o‘rgangan. O‘zini-o‘zi ongli boshqarish ixtiyoriy faollik asosida yuzaga kelishi, inson shaxsini harakatga keltiruvchi ichki rugulyatsiya – ehtiyojlar, motivlar, qiziqishlar, ustanovka anglangan bo‘lishi, ongli maqsad asosida, aqliy nazorat bilan boshqarilishi, bunda sub’ekt bilimi, tajribasi, malaka va mahoratiga tayanishi bilan bir qatorda ijtimoiy tajriba va me’yorlarga qat’iy amal qilishiga bog‘liq holda namoyon bo‘lishi ilmiy asoslangan. Ilk o‘spirinlik yoshi davridan boshlab o‘zini-o‘zi ongli boshqarish, ko‘proq ixtiyoriy faollikka tayanish va unga yoshlarni odatlantirib borish muhim ahamiyat kasb etishi e’tirof etilgan [6].

XULOSA

Xorijiy mamlakatlar psixolog olimlarining mavzuga doir ilmiy pozitsiyalari va olib borgan tadqiqotlarimizning dalillashicha, yoshlar dunyoqarashining shakllanishi yoki unda yuzaga keladigan o‘zgarishlar asosan yoshlarning psixologik himoya mexanizmi, hayotiy strategiyasi, ijtimoiylashuv darajasi, yetakchi faoliyat turi, o‘zini-o‘zi ongli boshqarish va emotsional barqarorlik, xulq-atvorning barqaror xususiyatlari, ta’lim va tarbiyada ustuvor metodologik tamoyillarga tayanish hamda insonning jismoniy va psixologik kamoloti uchun optimal shart-sharoitlar kabi muhim omillar bilan uzviy bog‘liq holda kechadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Белл. Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. М.,1999.С.2
2. Болотова А.К. Разветие самосознания личности: временной аспект. Вопросы психологии, №2, 2006, ст. 116-125.
3. Ениколопов С.Н. Мкртычян А.А. Психологические последствия терроризма. Вопросы психологии, №3, 2008, ст. 71-80.
4. Информационно-психологическая и психотранная война. Хрестоматия под.ред. Е. А. Тараса Минск “Харвест” 2003. -432с.
5. Конопкин О.А. Участие эмоций в осознанной регуляции целенаправленной активности человека. Вопросы психологии, №3, 2006, ст. 38-49.
6. Мдивани М.О., Кодесс П.Б. Методика исследования жизненных стратегий личности. Вопросы психологии, №4, 2006, ст. 146-149.
7. Соколова Е.Т. Феномен психологической защитыю Вопросы психологии, №4, 2007, ст. 66-79.
8. Bandura A. Social cognitive theory of mass commnication// Bryant J., Zillman D. Media effects: advances and research. Mahwah, N. J.: Lawrence Erlbaum, 2002. P.121-153